

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA

**O‘ZBEK TILIDA DARAJALANISHNING YONDOSH HODISALARGA
MUNOSABATI
(O‘zbek xalq maqollari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in
Philology**

To‘xtayeva Dilafruz Ashurovna

О‘zbek tilida darajalanishning yondosh hodisalarga munosabati (O‘zbek xalq
maqollari misolida)5

Тухтаева Дилафруз Ашуровна

Отношение градации к сопутствующим явлениям в узбекском языке (на
примере узбекских народных пословиц).....23

Tukhtayeva Dilafruz Ashurovna

The relationship between grading and related phenomena in the Uzbek language
(based on examples from Uzbek folk proverbs).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA

**O‘ZBEK TILIDA DARAJALANISHNING YONDOSH HODISALARGA
MUNOSABATI
(O‘zbek xalq maqollari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori PhD dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.2.PHD/Fil6026 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining web sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo'rayeva Bibish Muxsinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yusubova Ra'no Norboyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Madrahimov Ilhomjon Sobirovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 24 - mart soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-21; e-mail: buxdu-rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (835 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil 5 - mart kuni tarqatildi.

(2026-yil 5 - mart dagi 5 - raqamli reyestr bayonnomasi)



B.E. Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'. Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlar
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi taraqqiyotining hozirgi bosqichida til birliklari, jumladan, maqollarni o'rganish bilan bog'liq, ularga xos semantik jihatlarini yoritish bilan aloqador tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Lisoniy birliklarning semantik tuzilishi muammosi, turli xil yo'l va usullar bilan ma'noni yetkazishga xizmat qiluvchi kategoriyalarning darajalanish bilan munosabati masalasi, semantik kategoriyalararo aloqa hamda har bir kategoriyaga xos xususiyatlarni maqollar misolida tadqiq etish bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb semasiologik muammolaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda murakkab semantik shakllanishlarning lingvistik maqomini aniqlash so'nggi yillarda fanimizda kun tartibida turgan masalalardan biridir.

Dunyoda olam lisoniy manzarasining antroposentrik jihatlarini yoritish hozirgi tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan sanaladi. Insonning muloqot faoliyatini amalga oshirishdagi universal qobiliyatida leksik-semantik birliklar ahamiyati o'ziga xos. Ushbu leksik-semantik birliklarning aniqligi va barqarorligi o'zaro tushunishni, ularning moslashuvchanligi va harakatchanligi esa yangi ma'nolarning uzatilishini ta'minlaydi. So'nggi o'ttiz yillikda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan maqollarni tadqiq etishda faollik ko'zga tashlansa-da, maqol doirasidagi semantik munosabatlar, unga xos tarkibiy, semantik va semiotik xususiyatlarni aniqlash muammosi bugunga qadar ham aniq yechimini topgan emas.

O'zbekistonda bu yo'nalishda alohida olingan monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ekspressivlik, darajalanish, baho, emotsionallik kabi semantik birliklar o'rganilgan. Tilimizning o'ziga xos madaniy birligi hisoblanmish maqollarning lisoniy mavqeyi aniqlangan, shakllanish omillari belgilangan. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash¹ muhim vazifa bo'lib turgan bir vaqtda o'zbek xalq maqollarini semantik birliklar qurshovida tadqiq etish yana ham dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/-4561730>.

“Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga tatbiq etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik jamiyatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Olimlar maqol mavjudligining mohiyatini dunyo va bu dunyo odamlar haqidagi bilimlarni saqlashda ko‘radi. Maqollar madaniyatning boshqa turlari qatori xalq avtobiografiyasi, madaniyat ko‘zgusi bo‘lib, ijtimoiy hayot va dunyoning kelib chiqishi haqidagi folklor g‘oyalarining tub mazmunini ochib beradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari insonning dunyoga qarashi tarkibiy qismi, ifodasi sifatida to‘planishi, tasniflanishi va o‘rganilishi zarur. Bu, o‘z navbatida, jamiyat kishisi tafakkurining darajasini belgilashga yo‘l ochadi. Tadqiqotchilar maqolning vaziyat belgisi sifatidagi an‘anaviy qarashlarni rad etib, paremiologik birlikning muloqotda axborot berish, baholash va tavsiya qilish kabi umumiy vazifalariga e‘tiborni oshirishdi². Maqollarga jiddiy e‘tibor qaratilib, ularga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik hodisasi tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar O.B.Abakumova (2013), I.V.Gorban (2010), L.A.Djelalova (2012), Y.A.Jigarina (2006), B.I.Karadjev (2009) ishlarida ko‘zga tashlanadi³. Til va nutq hodisalari hamda faktlariga kommunikativ yondashuv bilan bog‘liq holda zamonaviy tadqiqotchilarning e‘tiborini ekspressivlik, intensivlik, baho, darajalanish kabi jihatlarni tadqiq etish va ularni yuzaga chiqaruvchi vositalarni o‘rganish tobora keng jalb etmoqda⁴. Ammo shu ma‘noda maqollarda darajalanish, ekspressivlik, intensivlik, baho, emotsionallik kabi jihatlarni o‘rganish borasida amalga oshirilgan ishlar nihoyatda kam⁵.

² Бочина Т.Г. Диалогичность русской паремии // Паремология в дискурсе: Общие и прикладные вопросы паремологии. Пословица в дискурсе и тексте. Пословица и языковая картина мира / Под ред. Ломакиной О.В. – Москва, 2015. – С. 26-47; Бредис М.А. Представления о денежных отношениях в пословицах (на материале русского, латышского, литовского, немецкого и английского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: Наука, 2017. – 346 с.; Селиверстова Е.И. Пространство русской пословицы: постоянство и изменчивость. – Москва: Наука, 2017. – 296 с.

³ Абакумова О.Б. Пословичные концепты в паремическом дискурсе: Дисс. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 и 10.02.19 – Орел, 2013. – 375 с.; Горбань И.В. Роль паремий в речевых актах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.19 – Саратов, 2010. – 26 с.; Джелалова Л.А. Изучение пословичных изречений тематической группы «Человек» по методике Пермякова Г.Л. // Джелалова Л. А // Вектор науки Тольяттинского государственного университета, 2012. – № 3 (21). – С. 131-135.; Жигарина Е.А. Современное бытование пословиц: вариативность и полифункциональность текстов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.01.09 – Москва, 2006. – 25 с.; Караджев Б.И. Коммуникативно-прагматический потенциал русских пословиц: Дисс. ... канд. фил. наук: 10.02.01. – Москва, 2009. – 163 с.

⁴ Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления: Проблемы семантики. – Новосибирск: Наука, 1986. – 227 с.; Родионова С.Е. Интенсивность и ее место в ряду других семантических категорий. Славянский вестник. Вып. 2. – Москва: МАКС Пресс, 2004. – 608 с. 3; Неверова В.С. Категория интенсивности качественной характеристики в современном французском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Н. Новгород, 1997. – 194 с.; Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – Москва, 1990. – 172 с.; Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки / Отв. ред. Степанов Г.В. – Москва: Наука, 1985. – 228 с.; Мезенина М.В. Градуальность в парадигматике лексики немецкого языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1991. – 260 с.

⁵ Прекина Н.В. Градуальная семантика русский пословиц [Электронный ресурс]: Дисс. ... канд. филол. наук:

Graduallik (gradatsiya) kategoriyasi universal lingvistik kategoriya sifatida azaldan ham mahalliy, ham xorijiy tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Tadqiqotchilar darajalanishni ham mantiqiy-semantik, ham leksik-grammatik, ham leksik-semantik kategoriya tarzida tadqiq etishgan; ayrim olimlar uni intensivlik kategoriyasiga (I.I.Turanskiy), yana ba’zi birlari intensivlashuvning kommunikativ-pragmatik kategoriyasiga (I.I.Sushchinskiy) kiritish lozimligini qayd etishgan. Ammo hozirga qadar na jahon tilshunosligida, na mahalliy tilshunoslikda maqollardagi darajalanishning yondosh hodisalarga munosabati masalasi ochib berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2020–2025-yy.) mo‘ljallangan. “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek xalq maqollari asosida darajalanishning boshqa semantik kategoriya hamda turlarga munosabatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek xalq maqollari misolida darajalanishning ekspressivlik hamda uning ichki turlariga bo‘lgan munosabatini ochib berish;

darajalanish va intensivlik, darajalanish va baho o‘rtasidagi umumiylik hamda xususiyliklarga aniqlik kiritish;

darajalanish va sinonimiya; darajalanish va antonimiya munosabatlari asosida semantik turlararo o‘ziga xoslik muammolarini dalillash;

darajalanishning giponimiya va partonimiyaga munosabatini yoritish.

Tadqiqot obykti sifatida o‘zbek xalq maqollaridagi darajalanish tanlangan.

Tadqiqotning predmeti xalq maqollari misolida o‘zbek tilida darajalanishning ekspressivlik, intensivlik, baho, emotsionallik, obrazlilik kategoriyalariga hamda sinonimiya, antonimiya, partonimiya va giponimiya kabi semantik turlarga munosabatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini ochib berishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, komponent tahlil, kontekstual sharhlash tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon hamda o‘zbek tilshunosligida darajalanishning nazariy tadqiqi atroflicha o‘rganilgan, daraja va darajalanishning nolingvistik hamda lingvistik ko‘rinishlari asoslangan;

maqollar misolida darajalanish va ekspressivlikning turlari, ya’ni intensivlik, baho, emotsionallik, obrazlilik o‘rtasidagi tafovutlar aniqlangan;

darajalanishning sinonimiya hamda antonimiya bilan bo‘lgan munosabatiga aniqlik kiritilib, maqollar asosida dalillangan;

darajalanishning giponimiya va partonimiya bilan aloqadorligi, ular o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlar misollar yordamida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mavzuga oid muammoning aniq belgilanganligi, nazariy faktik materiallarning chuqur o‘zlashtirilganligi hamda

ulardan to‘g‘ri, ishonchli xulosalar chiqarilganligi, izlanish davomida asosli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi; nazariy fikr asosida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maqollar doirasidagi darajalanishning ekspressivlik, intensivlik, baho, obrazlilik kategoriyalari hamda sinonimiya, antonimiya, partonimiya, giponimiya kabi semantik turlarga munosabati nazariy asoslab berilganligi, ulardagi o‘ziga xoslik, individuallik misollar yordamida chuqur tahlil qilinganligi, shu asosda ushbu semantik kategoriya va turlarning lisoniy mavqeyiga aniqlik kiritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalarning paremiologiya, leksikologiya, semasiologiya, pragmatika hamda lingvokulturologiya bo‘yicha yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi, dissertatsiya materiallari o‘zbek paremiologiyasiga oid mavjud lug‘atlarni boyitishda, shuningdek, darajalanish xususiyatini namoyon qiluvchi so‘zlar lug‘atini yaratishda muhim manba bo‘la oladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Darajalanishning yondosh hodisalar bilan munosabatini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobili lingvistik tatqiqida darajalanish va unga yondosh hodisalar, jumladan, ekspressivlik, intensivlik, obrazlilik hamda baho xarakteriga ega bo‘lgan birliklarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari, ularning maqollar misolidagi o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek millati ongidagi dualistik dunyoqarashning lingvistik vositalarda namoyon bo‘lishi haqidagi muayyan xulosalarni ochib berishda ALM-202310132634 raqamli “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun‘iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta‘minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani (2022–2023-yy.) amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 11-iyundagi 908-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mobil ilovadagi nomlarni shakllantirishda ilmiy xulosalarga tayanilgan;

darajalanishning semantik turlarga munosabati nazariy asoslab berilganligi, ulardagi o‘ziga xoslik, individuallik maqollar yordamida chuqur tahlil qilinganligi (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Buxoro viloyat bo‘limining 2025-yil 27-maydagi 01/232-sonli ma‘lumotnomasi) ma‘naviyat targ‘ibotchilarining notiqlik mahoratini yanada oshirishga imkon yaratdi;

amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasidan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va nufuzini oshirishga qaratilgan tadbir va boshqa loyihalarda keng foydalanilgan (Buxoro viloyati hokimligining 2025-yil 20-maydagi 11/1180-sonli xati). Natijada darajalanish xususiyatiga ega maqollarning tilda qo‘llanilishi hamda gradatsiyaning boshqa yondosh hodisalardan asosiy farqlari haqidagi ilmiy xulosalardan foydalanish orqali tadbirlarning samaradorligiga erishildi;

darajalanish xususiyatini o‘zida namoyon etuvchi maqollarning tilda qo‘llanilishi hamda gradatsiyaning ekspressivlik, intensivlik, baho kabi kategoriyalardan asosiy farqlari va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha

O‘zbekiston teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat televideniya “Assalom Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlarining 2025-yil yanvar, fevral, mart sonlaridagi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining 2025-yil 29-apreldagi №01-09-54-son ma‘lumotnomasi). Bu orqali ushbu ko‘rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta‘minlangan va ular yangi ma‘lumotlar bilan takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 2 ta xalqaro hamda 3 ta ilmiy-amaliy anjumandan aprotatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, xorijiy jurnallarda 2 ta, respublika ilmiy nashrlarida 4 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, 4 ta jadval va 17 ta chizmadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Tilshunoslikda darajalanish ilmiy-nazariy muammo sifatida”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. *“Jahon tilshunosligida darajalanishning nazariy tadqiqi”* faslida darajalanishning ilmiy muammo sifatida o‘rganilishi haqida fikr yuritiladi. Bu borada ustuvorlik amerikalik tilshunos E.Sepirga⁶ tegishli bo‘lsa-da, bu hodisaning zaruriy shartlari hamda xususiyatlarini belgilash antik davrda paydo bo‘lgan. Aristotelning “Kategoriyalar” asarida miqdor kategoriyasiga qo‘shimcha ravishda korrelyatsiya deb ataladigan hodisa, ya‘ni obyektlarni bir-biri bilan solishtirishga imkon beruvchi terminga ham e‘tibor qaratilgan. Aristotel gradatsiya mexanizmi masalasini ko‘taribgina qolmay, balki uning qamroviga kiruvchi birliklarni ham aniqlagan, ya‘ni gradatsiyaning haqiqiy obyektini belgilagan. Bunday kategoriyaga, birinchi navbatda, sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi birliklar kiritilgan. Aristotel o‘zida o‘sib yoki pasayib boruvchi sifat o‘zgarishlarini ifodalovchi birliklar darajalanish obyekti bo‘la olishi haqidagi asosli xulosaga kelgan. “Daraja” tushunchasini birinchi marta N.S.Trubetskoy fonologiyada qarama-qarshilik munosabatlarini o‘rnatish uchun kiritgan. Bunda olim bir xil xususiyat namoyon bo‘lishining turli darajalariga urg‘u bergan. Hozirga

⁶Сэпир Э. Градуирование: семантическое исследование: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 21.

qadar nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki xorijiy lingvistikada ham darajalanish va unga yondosh hodisalar bo‘yicha tizimli nazariy tadqiqot yaratilmagan, ushbu muammo ayrim tilshunoslar ishida bir tomonlama tahlilga tortilgan. Jumladan, rus tilshunosligida N.N.Maksimchuk⁷ nomlar tizimidagi pasayish va o‘shishning miqdoriy darajalari, Y.N.Sergeyeva⁸ intensivlik va uning ingliz tilidagi ifodasi, K.M.Suvorina⁹ zamonaviy ingliz tilida intensivlik, N.A.Lukyanova¹⁰ so‘zlashuv nutqining ekspressiv leksikasi, I.A.Kozlova¹¹ har xil turdagi nominatsiyalarda sifatning darajalanishi (ingliz tili materiallari asosida), I.I.Turanskiy¹² ingliz tilidagi intensivlikning semantik kategoriyasi, Y.I.Sheygal¹³ leksik semantikada darajalanish, M.U.Zubayrayeva¹⁴ darajalanish sifat belgisi ekanligi bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

“O‘zbek tilshunosligida darajalanishning o‘rganilishi” nomli ikkinchi faslda o‘q ildizi Qur‘oni karimga borib taqaladigan Shayx Nuriddin hoji Xoliqnazar Hazratlarining ma‘ruzalaridagi jannatning darajotlari¹⁵ haqidagi fikrlari tilshunoslikdagi darajalanish kategoriyasi ildizlari ushbu tabarruk kitobdagi g‘oyalardan boshlanishi haqida guvohlik berishi qayd qilingan. Fanimizda darajalanishni ilmiy tadqiq etishning tub ildizi Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiylarga borib taqalsa; ushbu hodisaning tilda mavjudligi Yusuf Xos Hojib, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy kabi ijodkorlarning she‘riy asar (g‘azal, ruboiy, muxammas va h.k.)larida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilshunosligida graduonimiya tushunchasi tilning nafaqat leksik, ayni chog‘da morfologik, sintaktik va stilistik sath birliklari orasidagi munosabatning keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, bu sohada anchagina izlanishlar amalga oshirildi. XX asrning 80-yillaridan boshlab bu borada jiddiy tadqiqotlar boshlanib, 90-yillaridan keyin esa bu ilmiy tushuncha tadqiqotlardan maktab va oliy o‘quv yurtlari qo‘llanmalariga, shuningdek, o‘zbek tilida nashr etilgan tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atiga kirib bordi. Shundan so‘ng o‘zbek tilshunosligida graduonimiya, gradatsiya va graduonimik munosabatlar tushunchasi dastlab leksika va morfologiyada, keyinchalik sintaksisga ham tatbiq etildi hamda umumlisoniy munosabat turi sifatida qayd etiladigan bo‘ldi. 1996-yilda Sh.Orifjonova lug‘aviy darajalanishni o‘zining nomzodlik dissertasiyasida atroflicha tadqiq etdi¹⁶. Olima ushbu tadqiqoti bilan tilshunoslikda ungacha ajratib kelingan ma‘noviy lug‘aviy paradigmalarning sinonimik, partonimik, antonimik kabi turlarini to‘rtinchi

⁷ Максимчук Н.Н. Количественные градации уменьшения-увеличения в системе имени: Дисс. ... канд. филол. наук. – Киев, 1966. – С. 18.

⁸ Сергеева Е.Н. Степени интенсивности качества и их выражение в английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1967. – С. 18.

⁹ Суворина К.М. Интенсивы в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1976. – С. 22.

¹⁰ Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления: Проблемы семантики. –Новосибирск: Наука, 1986. – 227 с.

¹¹ Козлова И.А. Градуальность качества в разных типах номинации (на материале английских прилагательных): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1987. – 21 с.

¹² Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – Москва, 1990. – 172 с.

¹³ Шейгал Е.И. Градация в лексической семантике: Учебное пособие. – Куйбышев: КГПИ, 1990. – 95 с.

¹⁴ Zubayrayeva M.U. Градационность качественного признака: Дисс. ... канд. филол. наук. – Грозный, 2008. – С. 119.

¹⁵ <https://youtu.be/2AvrTKzGOnM?si=3OYYX5pZsf-uyHtD>

¹⁶ Орифджонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 113 б.

ko‘rinish graduonimik paradigmalar bilan boyitdi. 1997-yilda tilshunos olim O.Bozorov¹⁷ o‘zbek tilida graduonimiya hodisasini birinchilardan bo‘lib tilshunoslikning barcha bo‘limlariga ko‘ra tadqiq etib chiqdi. Lisoniy darajalanishni o‘rganish asoslari, darajalanish muammosida umumiylik va xususiyliklarga e‘tibor qaratdi. 2016-yilga kelib J.Djumabayeva doktorlik dissertatsiyasida¹⁸ o‘zbek hamda ingliz tillaridagi leksik va stilistik graduonimiya hodisasini qiyosan o‘rgandi. So‘nggi o‘n yillikda N.Abdullayeva¹⁹, A. Maxamadtoirova²⁰, N.P. Dustmamatova²¹, J.B.Kushmanov²² singari tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar ham turli tillar doirasida amalga oshirilganligi darajalanishning tillararo munosabatlarini ochishdagi yana bir bosqich bo‘ldi.

“Daraja va darajalanishning nolingvistik hamda lingvistik ko‘rinishlari” deb nomlanuvchi uchinchi faslda darajalanish kategoriyasi inson tafakkurining fundamental xususiyatlarini aks ettiruvchi mantiqiy asosga ega bo‘lgan hodisa ekanligi sababli, birinchi navbatda, gradatsiyaning mantiqiy mohiyatini aniqlab olishga e‘tibor qaratildi.

Nolingvistik daraja sxemasiga misol sifatida Dekartning matematik koordinatalar tizimini keltirish mumkin, shkalaning markazida boshlang‘ich nuqta – nol (0) joylashgan bo‘lib, musbat va manfiy raqamli ko‘rsatkichlar shkalaning koordinata o‘qlari bo‘ylab yo‘nalgan bo‘ladi. “Bora-bora qarama-qarshiliklar tilning leksik-semantik tizimidagi antonimlarning eng muhim qatlamini qamrab oladi. Bularga, birinchi navbatda, sifatlar kiritiladi: *issiq – iliq – sovuq* kabi²³”. Ko‘rinadiki, Dekartning nolingvistik matematik koordinatalar tizimi tilshunoslikda antonimiya hamda sinonimiyaning darajalanishga munosabatini ochish uchun eng asosli vositaga aylanadi.

Ikkinchi nolingvistik daraja sxemasi tibbiyotda qo‘llaniluvchi termometr asbobidir. Kognitiv va amaliy maqsadlarda haroratni o‘lchash zarurati XVI asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Bunday o‘lchovlar uchun kuzatuvlardan ma‘lum bo‘lgan ba‘zi parametrlarning haroratga funksional bog‘liqligini qo‘llash kerak edi. Havoning qizdirilganda kengayish qobiliyati I asrda iskandariyalik Heron tomonidan ma‘lum bo‘lgan. 1597-yilda Galiley haroratni o‘rganish uchun termoskopni taklif qiladi. Zamonaviy suyuq shisha termometrlarga o‘xshash termometrning dizayni Galileyning shogirdi, Toskana gertsogi Ferdinand II nomi bilan bog‘liq. Ushbu o‘lchovlarni yaratish uchun bir xil prinsipning mavjudligi ostida inson tafakkuri xususiyatlari sifatida masshtablash va darajalanishning universalligi yotadi.

¹⁷ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. – Тошкент: Фан, 2023. – 153 б.

¹⁸ Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2016. – 231 б.

¹⁹ Абдуллаева Н.Е. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2021. – 136 б.

²⁰ Махаматтоирова А. Hozirgi xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish: Filol. fanl. fals. dokt. (PhD)... diss. – Toshkent, 2022. – 60 b.

²¹ Dustmamatova N.P. O‘zbek va rus tillaridagi lug‘aviy graduonimiya: Filol. fanl. fals. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 55 b.

²² Kushmanov J.B. O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklar graduonimiyasi: Filol. fanl. fals. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Urganch, 2023. – 54 b.

²³ Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1993. – С. 171.

Darajalanish semantikasiga ega bo'lgan maqollarni ko'rib chiqish asnosida tilshunosligimizda quyidagi atamalarni bir-biridan o'zaro farqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz: *darajalanish semantikasi*, *darajalanuvchi sema (gradosema)*, *darajalanish (gradatsiya)*, *darajalanish munosabatlari (gradatsion munosabatlar)*, *darajalanish shkalasi (gradatsiya shkalasi)*, *darajalanish qatori*, *graduator*.

Darajalanish semantikasi deganda denotativ va konnotativ makroelementlar, mavhumlikning turli darajadagi semalar to'plami, ular orasida gradosemaning ishtiroki majburiy bo'lgan va iyerarxik tarzda tashkil etilgan tuzilma tushuniladi.

Darajalanuvchi sema (gradosema) – strukturaning (semema) minimal elementi bo'lib, gradatsiya shkalasi bo'yicha o'lchovning nol darajasiga nisbatan uning pozitsiyasini bildiradi; u xususiyat, harakat namoyon bo'lishining o'lchovi, darajasi, ortishi yoki kamayishi ma'nosida uqiladi.

Darajalanish (gradatsiya) – so'zlarni semantik hamda emotsional ma'nosining ortishi yoki kamayishi tartibida izchillikda, ketma-ketlikda joylashtirishdan iborat stilistik figura.

Darajalanish munosabatlari (gradatsion munosabatlar) – grammatik jihatdan subyektiv hamda obyektiv munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan tushuncha.

Darajalanish shkalasi (gradatsiya shkalasi) – katta/kichik, teng graduatorlarga nisbatan tartiblangan birliklar qatori; masshtab atribut darajasining ortish/pasayishini ifodalaydi.

Darajalanish qatori – gradatsiya shkalasi bo'yicha o'lchovning nol darajasiga (me'yorga) nisbatan sifat tavsifining korrelyatsiyasi (tartibi).

Graduator – ikki xil nomenklaturaga ega: 1) umumiy baho tushunchasi, uning yordamida bir xususiyatdan ikkinchisiga o'tish amalga oshiriladi; 2) alomatning namoyon bo'lish darajasini oshiradigan yoki kamaytiradigan maxsus vosita.

Ikkinchi bob “**Ekspressivlik va darajalanish munosabati**” deb nomlangan. Bob uch fasldan tashkil topgan. Birinchi fasl “*Ekspressivlik: intensivlik, baho, emotsionallik, obrazlilik*” deb nomlanadi. Bunda ekspressivlikning o'ziga xos xususiyatlari, lug'atlardagi izohi; uning intensivlik, baho, emotsionallik, obrazlilik kabi turlar bilan aloqasi aniq dalillar asosida yoritib berildi.

Ekspressivlik bilan bog'liq matnlarda *intensivlik* tushunchasini ko'plab tadqiqotlarda uchratish mumkin. Jumladan, V.N. Teliyaning fikricha, “Ekspressivlik – bu hissiyotning emotsional jarayon yordamida kuchayishi ma'nosini belgilaydi²⁴”. I.V. Arnoldning aytishicha, “Ekspressivlik – bu matn va matn qismi xususiyati bo'lib, ma'noni kuchli intensivlik orqali namoyish qiladi²⁵”. I.I. Turanskiyning ta'kidlashicha, “intensivlik u yoki bu holatning o'lchovi, ifodalilik o'lchovi, uning darajasi, hissiyot o'lchovidir²⁶”. Ko'pgina tadqiqotchilar o'z ishlarida “intensivlik” tushunchasidan foydalanmoqda. Ammo ushbu terminning aniq talqini va shunga mos ravishda aniq ta'rifi hozirgacha yo'q. Buning sababi shundaki, bugungi kunda *intensivlik, ekspressivlik, emotsionallik, baholash, darajalanish* kabi kategoriyalarni farqlash zarurati va usullari to'g'risida umumiy fikr o'zbek tilshunosligida mavjud

²⁴ Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва: Наука, 1986. – С. 44.

²⁵ Арнолд И.В. Стилистика современного английского языка. – Москва: Просвещение, 1990. – С. 209-211.

²⁶ Туранский И.И. Содержание и выражение интенсивности в английском языке: Дисс. ... док. филол. наук. – Москва, 1991. – С. 6-7.

emas. Rus tilshunosligida ayrim olimlar intensivlikni mustaqil kategoriya sifatida belgilashning maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘tarib, ushbu kategoriyani emotsionallik va ekspressivlikning ma‘lum darajadagi sinonimi²⁷ sifatida ko‘rib chiqadilar.

Intensivlik tilning semantik kategoriyasi bo‘lib, uning asosida so‘zning keng ma‘nosida miqdor o‘shishi tushunchasi yotadi. Intensivlik – sifatni baholashning miqdoriy o‘lchovi va aloqa mazmuni xarakteristikasidir. Uslubiy nuqtayi nazardan intensivlik ekspressivlikning o‘lchovidir. Ekspressivlik gapning sifat tomonini ifodalasa, intensivlik yangi sifatga aylanmaydigan miqdor bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ekspressivlik (tilshunoslikda) – til birligining semantik-stilistik belgilari majmuyi; til birligining aloqa-so‘zlashuv jarayonida so‘zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo‘la olishini ta‘minlaydi va bunda ekspressivlikni emotsionallik yuzaga chiqaradi.

Obrazlilik ekspressivlikning boshqa komponentlari, ayniqsa, emotsionallik va baho bilan chambarchas bog‘liq. Zero, obrazlilik so‘zning o‘ziga xos struktur-semantik jihatlaridan biri sifatida uning semantikasi, valentligi, emotsional-ekspressivligi asosida yuzaga keladi. Shu bilan birga, N.A.Lukyanova ta‘kidlaganidek: “Obrazlilikdan foydalanishdan maqsad so‘zlovchining nutq mavzusiga hissiy munosabatini va uni baholashni og‘zaki ifodalashdir²⁸”. S.Stepanova “Obrazlilik ekspressivlikning tarkibiy qismlaridan biri sifatida ma‘lum lingvistik vositalarning badiiy sifati, ularning hissiy va mantiqiy mazmuni, tasvirning maksimal aniqligi va ravshanligiga erishish qobiliyati²⁹” ekanligiga e‘tibor qaratadi.

Til birliklaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan obrazlar universal xarakterga ega bo‘lib, barcha ona tilida so‘zlashuvchilar uchun umumiy bo‘ladi. Masalan: “*Ilon o‘z egriligini bilmay, tuyaning bo‘ynini egri deydi*”. Ushbu maqol o‘zining katta aybi bo‘la turib, o‘zgalarning arzimagan aybiga kuluvchi, masxara qiluvchi odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llaniladi. “*Bedananing ini yo‘q, qayga borsa – bitbildiq*”. Bu maqol hech bir joyda ishni yolchitmagan, mahmadona, xarala-tarala bedod, ko‘cha xandon odamlarga qarata aytiladi. Ko‘rinadiki, obrazli ta‘sir denonativ birliklar orqali ifodalangan mazmunga qaraganda ancha kuchliroqdir, chunki majoziy tarkib semantik jihatdan ikki planli bo‘lib, yangi assotsiatsiyalarni uyg‘otadi³⁰.

“*Darajalanish va intensivlikning o‘ziga xos xususiyatlari*” nomli ikkinchi faslda bu ikki kategoriya orasidagi munosabat hamda intensivlikni yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar (fonetik usul, morfologik-leksik usul, leksik usul, sintaktik usul va h.k.) misollar asosida yoritilgan. Har qanday til birliklari asosida intensivlikni o‘rganishda tadqiqotchilar bir qator muammolarga duch kelishadi,

²⁷ Егорова В.Н. К вопросу определения интенсивности в современном языкознании. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2009, № 6 (2), – С. 224-226.

²⁸ Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления: Проблемы семантики. – Новосибирск: Наука, 1986. – С. 69.


²⁹ Степанова С.Ю. Авторское использование экспрессивных средств языка и нестандартной сочетаемости: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1998. – С. 17.

³⁰ Степанова С.Ю. Авторское использование экспрессивных средств языка и нестандартной сочетаемости: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1998. – С. 17.

ulardan eng muhimi intensivlikni chegaralash va tegishli kategoriyalardan farqlash muammosidir. Chunki ushbu kategoriyalarning har biri mustaqil nom ostida yashar ekan, mustaqil kategoriya maqomini oladi, bu esa ushbu kategoriyalarni bir-biridan farqlash muammosini kun tartibiga qo'yadi.

Ba'zi bir adabiyotlarda darajalanish va intensivlik hodisasi qorishtirib yuboriladi. Jumladan, I.Turanskiy yozadi: "Tarkibiy nuqtayi nazardan intensivlik kategoriyasi uch qismli (uchlik) tuzilishdir: u me'yordan tushunchasini bildiruvchi markaziy va ikkita qarama-qarshi mazmunli a'zoga ega bo'lib, bular "me'yordan kamlik" va "me'yordan ortiqlik"dir. Bu intensivlik kategoriyasining mohiyatidir³¹". Ko'rinadiki, olim darajalanishga xos xususiyatni intensivlikka nisbat bermoqda. Aslida esa bularning har biri alohida mustaqil kategoriya ekanligini o'zbek xalq maqollari misolida kuzatamiz. Chunonchi: "Sekin yog'gan yomg'irdan qo'rq, Kulib boqqan hokimdan qo'rq". "Sevalab yog'gan yomg'ir yomon, Maydalab yog'gan qor yomon". "Olashovuridan qo'rqma, Olag'ovuridan qo'rq". "Ko'p yomg'ir yerni buzar, Ko'p so'z erni buzar". "Savalab yog'gan yomg'ir yondan o'tar, Sevalab yog'gan yomg'ir jondan o'tar".


Maqollardagi *sekin* leksemasi bilinar-bilinmas, sezilar-sezilmas semasi bilan; *sevalamoq* leksemasi maydalab, tomchilab yog'moq semasi bilan; *olashovur* leksemasi siyrak, ammo katta-katta, tasir-tusur semasi bilan; *ko'p* leksemasi uzoq vaqt davomiylik semasi bilan; *savalab* leksemasi shiddat bilan tinimsiz quymoq semasi bilan maqolda ishtirok etgan ("2.1-chizma"ga qarang):



2.1-chizma

"Yomg'ir" leksemasi asosida vujudga kelgan intensivlikning ko'rinishi

Yomg'ir yog'in turining maqollarda darajalanishi esa tubandagicha: "*Yomg'ir* bilan yer ko'karar, Tinchlik bilan el ko'karar". "*Jalada* qolgan yomg'irdan qo'rqmas". "*Yomg'ir* o'zin *sel* sanar, Ko'lmak o'zin ko'l sanar". "*Yomg'ir* yog'sa, to'rg'ay bolasin yashirar, *do'l* yog'sa, o'z boshin yashirar". Ushbu maqollar tarkibida ajratib ko'rsatilgan leksemalar yog'inning kuchlilik belgisi asosida quyidagi darajalanish qatorini hosil qiladi ("2.2-chizma"ga qarang):



2.2-chizma

Yog'in turini ifodalovchi leksemalarda darajalanishning ko'rinishi

Darajalanish predmetni atovchi leksemaning ontologik tabiatida mavjud bo'ladi. Masalan, *urug' – nihol – ko'chat – daraxt* yoki *chaqaloq – go'dak – bola – o'smir – yigit – chol – qariya* kabi darajalanish qatoridagi leksemalar o'sib borish belgisiga ko'ra o'zaro farqqa ega va bu belgi so'zning o'z tabiatida mavjud.

³¹ Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. Монография. – Москва: Высшая школа, 1990, – С. 9.

Intensivlik leksemaning ontologik tabiati emas, balki subyektiv jihat bilan bog‘liq bo‘ladi. Nutq davomida so‘zlovchi yordamchi vositalar orqali uni shakllantiradi. Masalan, *balandroq – baland – juda baland – g‘oyat baland; achchiqroq – achchiq – juda achchiq – behad achchiq*. Ushbu intensivlik qatorida belgining me‘yorda ekanligini bildiruvchi so‘zlar *baland* va *achchiq*. Leksemalardagi me‘yor o‘zgarishlari ma‘lum leksik va grammatik vositalar orqali amalga oshgan. Bu vositalar so‘zning sifatiga ta‘sir o‘tkazmay, faqat miqdor o‘zgarishini hosil qilgan. Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, graduonimiya qatorini tashkil qiluvchi leksemalarning ontologiyasida belgi miqdori mavjud bo‘ladi. Intensivlik asosida birlashuvchi leksik birliklarda esa miqdor tushunchasi ma‘lum bir vositalar orqali yuzaga chiqadi (“2.1-jadval”ga qarang):

2.1-jadval

Darajalanish va intensivlik o‘rtasidagi farq

| Darajalanish | Intensivlik |
|--|---|
| Belgining sifat jihatdan o‘zgarishiga asoslanadi. | Belgining miqdor jihatdan o‘zgarishiga asoslanadi. |
| Belgining oshishi yoki pasayishi kuzatiladi. | Faqat miqdor oshishi kuzatiladi. |
| Belgi leksemaning ontologik tabiatida mavjud bo‘ladi. | Miqdor belgisi leksemaning ontologik tabiatida mavjud emas. |
| Shakllantiruvchi maxsus lingvistik vositalarga ega emas. | Bir necha xil lingvistik vositalar orqali shakllantiriladi. |

Sifat va miqdor kategoriyalari, bir tomondan, turli xil tabiatga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular ajralmas butunlikda mavjud bo‘lib, buni til faktlarida ham kuzatish mumkin. Masalan, suvning sovuq holatidan qaynashgacha bo‘lgan jarayonida turli xil harorat ko‘rsatkichi mavjud bo‘ladi: 30° , 60° , 100° . Ushbu raqamlar suv harorati ko‘tarilishining intensivligini ifodalasa, suvning turli haroratdagi holatiga nisbatan qo‘llaniluvchi *iliq, issiq, qaynoq* so‘zlari darajalanish qatori hisoblanadi. Demak, bunda har xil harorat belgining turli ko‘rinishlarini yuzaga keltiradi. Ko‘rinadiki, tabiatda va jamiyatda bo‘lgani singari tilshunoslikda ham yondosh hodisalarning bir-biriga ta‘siri, ba‘zan esa qorishib ketish holatlari uchraydi.


Shunday qilib, biz intensivlik kategoriyasini boshqa obyektiv va subyektiv kategoriyalardan, chunonchi, darajalanishdan mustaqil kategoriya sifatida ajratish tarafdorimiz.

Uchinchi fasl “*Darajalanish va baho munosabati*” deb nomlanadi. Ma‘lumki, darajalanish va baholash intralingvistik universal kategoriya bo‘lib, funksional umumiylikka ega: har ikkalasi ham obyektga kuchli ta‘sir vazifasini bajaradi; uning subyektiv tanlash, bosqichma-bosqich baholash va intensivlikni ifodalash vositalari hamda usullari bilan bog‘liq bo‘ladi, o‘lchov va daraja ko‘rsatkichlari bilan birga keladi. Ushbu kategoriyalar taqqoslash mexanizmiga asoslangan holda maxsus darajalanish o‘lchovini o‘z ichiga oladi. Neytral holatda baholashni ham, darajalanishni ham belgilashning imkoni mavjud emas.

Baholash so‘zlovchining nutq mavzusiga (baholash obyektiga) ijobiy yoki salbiy munosabati ifodasi hisoblanadi. Tilshunoslikda baholashning qamrov doirasi

kengroq bo‘lib, u voqea yoki hodisa; predmet yoki jarayonga nisbatan so‘zlovchining turli xildagi munosabatini aks ettirishi, shuningdek, ushbu baholash turli asoslarga ko‘ra ham belgilanishi mumkin: *ma‘qullash, rad etish, istak, rag‘batlantirish, xohish, inkor etish, kamsitish* va h.k.

Darajalanish jarayoni baholash mexanizmi asosiga quriladi. Darajalanish psixologik jarayon sifatida o‘z-o‘zidan o‘lchov va hisobga daxl qiladi. Masalan, “A” (har qanday predmet) “B” (har qanday predmet) dan ko‘ra katta degan xulosaga kelishimiz uchun, avvalo, “A” va “B” ning o‘lchovlari bo‘yicha haqiqiy bilimga ega bo‘lishimiz kerak³². Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday bahoning ostida bilim yotadi. Darajalanish kategoriyasi baholash kategoriyasidan oldinda turadi, aks holda baholashning imkoni bo‘lmaydi. Masalan: “Mehmon avvalgi kun *tilla*, Ikkinchi kun *nuqra*, Uchinchi kun *mis*, To‘rtinchi kun *pes*”. Maqoldagi “tilla”da qimmatbaholik, qadrililik; “nuqra”da “tilla”ga nisbatan pastroq bahoga egalik; “mis”da esa “nuqra”ga nisbatan past bahoga egalik; “pes” so‘zida esa keskin salbiy ottenka kontekst talabi bilan reallashmoqda, ya’ni mehmondorchilikka kelingan birinchi kunda unga nihoyatda yuksak hurmat va e‘tibor bilan munosabatda bo‘linishi, ehtirom ko‘rsatilishi; ikkinchi-uchinchi kunlarda bu e‘tibor darajasining pasayib borishi, to‘rtinchi kunda hatto mehmonga nisbatan salbiy munosabat uyg‘onishi mumkinligi ifodalangan (“2.3-chizma”ga qarang):



2.3-chizma

Mehmonga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi leksemalarda darajalanishning ko‘rinishi

Taqdim etilgan talqin asosida belgi darajasining kamayib borayotgan gradatsiya shkalasini yaratish mumkin: birinchi belgi – bebaho, yuksak e‘tibor, hurmarga sazovorlik; ikkinchi belgi – hurmatli; uchinchi belgi – kundalik muomalaga loyiq; to‘rtinchi belgi – o‘zni undan uzoq tutish, ijirg‘anish, o‘zining dasturxoniga loyiq ko‘rmaslik, bezish, unga toqat qilolmaslik. Bu leksemalarning maqolda yonma-yon qo‘llanilishi, baholovchi xususiyat asosida birlashishi *mehmon* so‘zi bilan bog‘liq. Demak, ushbu so‘zlar maqol tarkibida *mehmon* so‘ziga assotsiatsiyalanadi.

Shunday qilib, lisoniy birliklarni til va nutq materiallari asosida tahlil qilish baholashning asosida darajalanish hodisasi yotishini ko‘rsatadi. Baholash kategoriyasi turli sath birliklari asosida amalga oshiriladi. Baholovchi leksemalarning darajalanish qatorini tahlil qilish ular tarkibida me‘yor qiyosigina emas, balki ma‘lum daraja ko‘rsatkichi ham borligini aytishga asos bo‘ladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Darajalanishning semantik turlarga munosabati**” deb nomlangan. Bob uch fasldan tashkil topgan bo‘lib, “*Darajalanish va sinonimiya munosabati*” deb nomlanuvchi birinchi faslda darajalanish va sinonimiyaga xos o‘xshash hamda farqli jihatlar tahlilga tortilgan. Xususan, sinonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasining a‘zolari ayni bir

³² Колесникова С.М. Функционально-семантическая категория градуальности в современном русском языке. – Москва: Высшая школа, 2010. – С. 279.

denotat, ayni bir voqelikni turlicha atab, ifodalab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasi a‘zolari turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o‘sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog‘langan bo‘ladi. G‘.Rahmonovning tadqiqotida o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nodoshlik va darajalanishning tutash nuqtasi bo‘lmish gradual sinonimlar o‘rganilgan. Tadqiqotchi gradual sinonimiya hodisasiga to‘xtalib, bu hodisaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Gradual sinonimiyada sinonimik qatordagi barcha leksemalar lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra umumiy tushunchani anglati-da, darajalanishni ko‘rsatuvchi farqli belgisiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Sinonimik qatordagi ana shunday farqlanish graduonimiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi”³³. Chunonchi, B.Jo‘rayevaning “O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimlar lug‘ati”³⁴ni kuzatish jarayonida sinonim maqollardagi quyidagi ikki holat aniqlandi:

1. Darajalanishni shakllantiruvchi leksemalarga ega sinonim maqollar qatori.


“*Qulochingga qarab ketmon chop*”. “*Bo‘yingga qarab to‘n bich*”. Bunda *quloch*, *bo‘y* leksemalari darajalanish nuqtayi nazaridan quyidagi tartibda joylashadi (“3.1-chizma”ga qarang):



3.1-chizma

Leksemalardagi uzunlik belgisining oshib borishiga ko‘ra darajalanish qatori

